

**TEKNOLOGIYA DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN  
SUVENIRLAR YASASH TEKNOLOGIYASI****ТЕХНОЛОГИЯ ИЗГОТОВЛЕНИЯ СУВЕНИРОВ ИЗ ПРИРОДНЫХ  
МАТЕРИАЛОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ**

*N. Toshpo'latova, R. Jiyanqulova*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Maqolada texnologiya darslarida tabiiy materiallardan foydalanib suvenir tayyorlash texnologiyasi yoritilgan, tabiiy materiallarni qo'llash orqali buyumlarni tayyorlash usullari haqida malumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** kasb-hunar, tabiiy materiallar, texnologiya ta'limi, dars, bisser va munchoqlar bilan ishlash, amaliy san'at, bezak materiallar, ishlov berish texnologiyasi.

**Аннотация:** В статье описана технология изготовления сувениров из природных материалов на уроках технологии, дана информация о способах изготовления изделий из природных материалов.

**Ключевая слова:** профессия, природные материалы, технология обучения, урок, работа с бисером и бисером, практическое искусство, декоративные материалы, технология обработки.

**Annotation:** The article describes the technology of making souvenirs from natural materials at technology lessons, provides information on how to make products from natural materials.

**Key words:** profession, natural materials, teaching technology, lesson, work with beads and beads, practical art, decorative materials, processing technology.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalariga respublikamizda jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalari prezident Sh.Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan yig'ilishida muhokama qilindi va mas'ullarga aniq vazifalar belgilab berildi.

Sh.Mirziyoyev o'z ma'ruzasida "Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelmoqda" deb ta'kidlab har bir maktabda 64 xil kasb-hunarlar o'rgatilishi yo'lga qo'yilishi haqida dolzarb vazifalarni belgilab berdi[1].

Yoshlarni kasb-hunar egallashga undash asrlar davomida dolzarblikmkasb etgan.

Kaykovus o'z zamonasining farzandlari mehnatsiz, ilm-hunarsiz na ilm cho'qqisiga, na ma'rifatga ega bo'lishi mumkin emasligini o'zining hayotiy tajribasi orqali tushuntiradi.U "Bilimni egallamoq uchun mehnat qilish badanni dangasalikdan

qutqarish foydalidir. Chunki dangasalik, ishyoqmaslik badanni buzilishiga, kasallanishiga sabab bo'ladi". Agar mehnat qilib badanni o'zingga bo'ysundirmasang, sog'lom va baland martabali bo'la olmaysan" deb uqtirgan.

Bola tarbiyasida hunar o'rganishning ta'siri, halol mehnat kabi axloqiy tushunchalarshubhasiz yuksak ma'no kasb etadi. Kasb va hunar yoshlarni vaqtining behuda o'tishiga yo'l qo'ymaydi. Hunar va kasb o'rganish yoshlarni har qanday nojo'ya hatti-harakatlardan holi qiladi. Hayotda duch keladigan qilyinchiliklar oqibatida paydo bo'ladigan yomon fikrlardan qaytarishga o'rgatadi [2].

O'zbek xalqining kasb-hunarmandchilik sohalari xilma-xil bo'lib, o'ziga xos boy usullarga ega. Bizgacha avlodlarimizdan meros bo'lib yetib kelgan xalq hunarmandlari tomonidan yasalgan san'at asarlari rang-barang va xilma-xildir.

Bular: -kulollik buyumlari; -zargarlik; -toshtaroshlik; ganchkorlik; -ipakdan, jundan to'qilgan gazlamalar; -gilamlarchilik; -yog'och va metallardan ishlangan uy-ro'zgor ashyolari; -teriga ishlov berish; -gul chekib o'yilgan marmar tosh buyumlari, -badiiy kashta bilan bezalgan so'zanalar; -zardo'zi kashtalar, -turli xil do'ppilar; quroq tikilgan buyumlar va boshqalardir.


Amaliy san'atning yuqorida qayd etilgan turlari har manzilning o'ziga xos mahalliy xususiyatlariga ega bo'lib, shakl, naqsh, bo'yoqlar va ishlov berish usullarida farq qiladi. Bu esa hunarmandlar orasida o'ziga xos ishlov buyumlari va xilma-xil bezash asboblari mavjudligidan dalolat beradi.

Har bir tarixiy davr amaliy san'at va hunarmandchilikning ayrim turlarining ustunligi bilan tavsiflanadi. Turli davrlarda san'at turining yo'nalishi o'zgarib, yangi jamiyat talab va ehtiyojlariga javob beradi. Ammo odamlarning hunarmandchilik va amaliy san'at buyumlarini yaratish yoki bezashda fantaziyadan foydalanish istagi so'nmasdan, aksincha rivojlanib boraveradi.

Ijodiy fikrlash insonning asosiy farqlovchi xususiyatlaridan biridir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-9 sinflarda kasb-hunarga yo'naltirish fanidan teriga ishlov berish texnologiyasi, unga bezak berishda yangi kompozitsiyalar tuzish usullarini o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday san'at turlari borki ular uchun xomashyoni tabiatdan osongina topsa bo'ladi. Biz quyida taklif qilayotgan texnologiya ham tabiiy mahsulotlardan foydalanilgan. Buning qulaylik tomoni ham shundaki kerakli materiallarni topishda muammo bo'lmaydi.





1-rasm. Bisserdan ishlangan "Registon" tasviri.

**Kerakli materiallar** ; - oshlangan teri ; - 50 sm li 4 dona novda ; - sintetik tolali ip ; - qalam ; guash, akvarel bo'yoq, bigiz ; igna ; angishvona ; turli rangli bisser toshlar. -kist, yelim.

#### **Ishning tartibi:**

- Ishlov berilib tayyor bo'lgan terini kerakli shaklga keltirish uchun terilarga qayta shakl berib olinadi ;

-qolip uchun o'rik, tol, yoki qayrag'och daraxtlari shoxlaridan diametri 5 sm li yog'och novdadan 55 X 40 sm li rom yasab olinadi.

-yog'och chetlari bir-biriga biriktirish uchun bigiz yordamida teshib charm ip bilan boglanadi,

- terining to'rt tarafidan har 3 sm dan bigiz yordamida teshib chiqiladi ;

- har bir teshikdan birma – bir pishitilgan sintetik ip bilan yog'och romga o'rab chiqiladi.

- tarang tortilgan teri qotish uchun 2 kunga qoldiriladi ;

- qalam yordamida rasm teriga chiziladi ;

- akvarel va guash yordamida bo'yaladi ;

- turli rangli toshlarni yelim yordamida yopishtirib olinadi ;

-10-15 daqiqada tayyor bo'ladi.

Xulosa qilib aytsak, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda hunarmandchilikning zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unligi yaxshi natija beradi. O'quvchilar tomonidan yasalgan bunday buyumlar mamlakatimizga kelgan turistlarni e'tiboridan

chetda qolmasligi mumkin. Yuqoridagi singari texnologiyalar asosida tayyorlangan suvenirni tayyorlash orqali talabalarda amaliy san'atga qiziqish, mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va milliy qadriyatlarini e'zozlash, qadrlash kabi xislatlarni shakllantiradi. Kelgusida ushbu kasb orqali tadbirkorlik bilan shug'ullanishi mumkin bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoev. "Maktablarda 64 xil kasb o'rgatiladi, xorijlik o'qituvchilar jalb qilinadi". Toshkent. 20.01.2023Vikipediya. San'at.
2. S. Bulatov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent-1991 yil.
3. Sh. Mamasoliyeva. Xalq hunarmandchiligi. Samarqand. SamDU nashriyoti. 2021.276 b.